IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: FX47885643

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 2a-uy
Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

**MINISTRY OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN**

2a, Navoiy Street, Tashkent, 100011
Tel.: (+998) 71 241-01-86; (+998) 55 503-74-00
web-site: www.uzedu.uz, e-mail: uzedu@exat.uz

«22»-avgust 2023-y. 02-02/1-1347-son «___» ________2023 y.

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Toshkent shahar, viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalariga**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 30-sentabrdagi 823-sonli qarorining 1-ilovasi bilan “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘rnak ko‘rsatgan xodimlarini rag‘batlantirishning direktor jamg‘armasini tashkil etish va uning mablag‘laridan foydalanish tartibi to‘g‘risida Nizom” tasdiqlangan.

Mazkur Nizomning 26-bandida “Umumta’lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilash, fanlararo integratsiyani kuchaytirish, ta’lim va tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish, STEAM yondashuvini samarali tashkil etish, ularning kasbiy va metodik mahoratini hamda malakasini oshirishda faolligi uchun Ishchi guruhining qarori bilan (*mazkur Nizomning 4-bandida belgilangan o‘qituvchilar umumiy sonining 50 foizidan tashqari*) umumta’lim muassasasining fan yo‘nalishlari bo‘yicha uslubiy birlashmalar rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga 10 foizlik har oylik ustama haq belgilash mumkin” deb ko‘rsatilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2022-yil 5-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida uzluksiz metodik xizmat ko‘rsatish ishlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 372-sonli buyrug‘i bilan “Fan oylik”larini o‘tkazish bekor qilingan.

Shu sababli, vazirlik tomonidan umumta’lim muassasasining fan yo‘nalishlari bo‘yicha uslubiy birlashmalar rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga 10 foiz har oylik ustama haq belgilashning yangi mezoni ishlab chiqildi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Sizdan umumta’lim muassasasining fan yo‘nalishlari bo‘yicha uslubiy birlashmalar rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga har oylik ustama haq belgilash ishlarini ilovadagi mezon asosida amalga oshirilishini ta’minlashingizni so‘raymiz.

Ilova 2 varaqda.

**Vazirning birinchi o‘rinbosari** **U.Sharifxodjayev**

Ijrochi: O.Dauletbaev
Telefon 55 503 74 00

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligining 2023-yil 22-avgustdagi
02-02/1-1347-sonli xatiga
ILOVA

**Umumta’lim muassasasining fan yo‘nalishlari bo‘yicha uslubiy birlashmalari rahbarlari bazaviy tarif stavkalariga 10 foiz har oylik ustama haq belgilash**
**Mezonlari**

| T/r | Mezonlar | Maksimal ball | Samara-dorlik ballari | Ko‘rsatkichlar | Ustama belgilash davriyligi | Assoslovchi hujjatlari |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Ta’lim jarayonida pedagog xodimlarga o‘z vaqtida metodik yordamni tashkil etish, ularning kasbiy va metodik mahoratini hamda malakasini oshirishdagi faolligi | 30 | 0 | Metodbirlashma a’zolari uchun kamida 3 ta metodik tadbir (*o‘quv-seminar, mahorat darslari, fanga doir qo‘shimcha ma’lumotlar, yangiliklar muhokamasi yuzasidan davra suhbati va hakazo*) tashkil etmagan bo‘lsa | Har chorakda* | Metodik tadbir haqida 1 varaqdan oshmagan holda qisqa ma’lumot va tadbirdan 2 dona fotolavha |
| | | | 30 | Metodbirlashma a’zolari uchun kamida 3 va undan ortiq metodik tadbir (*o‘quv-seminar, mahorat darslari, fanga doir qo‘shimcha ma’lumotlar, yangiliklar muhokamasi yuzasidan davra suhbati va hakazo*) tashkil etgan bo‘lsa | | |
| 2 | Ta’lim va tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishdagi faolligi | 20 | 0 | Metodbirlashma a’zolariga ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish uchun chorakda 1 ta pedagogik texnologiya yoki o‘qituvchilarning fanni o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarini to‘ldirish usullari tavsiya etilmagan bo‘lsa | Har chorakda* | Tavsiya etilgan pedagogik texnologiya yoki o‘quvchilarning fanni o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish usullari haqida 1 varaqdan oshmagan qisqa ma’lumot |
| | | | 20 | Metodbirlashma a’zolariga ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish uchun chorakda 1 ta pedagogik texnologiya yoki o‘qituvchilarning fanni o‘zlashtirishdagi bo‘shliqlarini to‘ldirish usullari tavsiya etilgan bo‘lsa | | |
| 3 | Fanlararo integratsiyani kuchaytirish va STEAM yondashuvini samarali tatbiq etishdagi faolligi | 10 | 0 | Umumta’lim muassasasida boshqa fan metodbirlashmalari bilan fanlararo integratsiyani kuchaytirish va STEAM yondashuvini samarali tatbiq etish masalasi chorakda bir marta muhokama qilinmagan bo‘lsa | Har chorakda* | Metodik tadbir haqida 1 varaqdan oshmagan holda qisqa ma’lumot |
| | | | 10 | Umumta’lim muassasasida boshqa fan metodbirlashmalari bilan fanlararo integratsiyani kuchaytirish va STEAM yondashuvini samarali tatbiq etish masalasi chorakda bir marta muhokama qilingan bo‘lsa | | |
| 4 | Umumta’lim muassasasida o‘quv-tarbiya jarayoni sifatini yanada yaxshilashdagi faolligi | 40 | 0 | Umumta’lim muassasasidagi metod birlashmaga a’zo bo‘lgan o‘qituvchilarning barchasi “Ochiq dars”lar tashkil etmagan bo‘lsa | Har chorakda* | “Ochiq dars” tezisi, taqdimot, tarqatma material, va 4 dona foto lavha |
| | | | 30 | Umumta’lim muassasasidagi metod birlashmaga a’zo bo‘lgan o‘qituvchilarning barchasi “Ochiq dars”lar tashkil etgan bo‘lsa | | |
| | | | 0 | Metodbirlashma yig‘ilishini chorak davomida o‘tkazmagan bo‘lsa | Har chorakda* | Ushbu ko‘rsatkich uchun hujjat talab qilinmaydi |
| | | | 10 | Metodbirlashma yig‘ilishini chorak davomida o‘tkazgan bo‘lsa | | |



*ushbu ko‘rsatkich har chorak yakuni bo‘yicha hisoblanmaydi, bunda 1-chorak natijalari 2-chorak davomida, 2-chorak natijalari 3-chorak davomida, 3-chorak natijalari 4-chorak davomida, 4-chorak natijalari keyingi yilning 1-choragi davomida amal qiladi.